

MIFOLOGIK QARASHLARNING ADABIYOTGA KO‘CHISHI: TARIXIY VA MADANIY ILDIZLARI

Kuchiboyev Mansur Abdumurotovich,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,

Samarqand kampusi Xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada mifologik qarashlarning adabiyotga ko‘chishi jarayoni, ularning tarixiy va madaniy ildizlari Sharq va G‘arb an‘analari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda demonologiya va angelologiya tushunchalarining shakllanishi, mifologik tasavvurlarning diniy, falsafiy va badiiy tafakkur bilan uzviy bog‘liqligi yoritiladi. Ingliz va o‘zbek adabiyoti misolida demonologik va angelologik obrazlarning genezisi, semantik mazmuni hamda badiiy funksiyalari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada mifologik obrazlarning adabiyotda yovuzlik va ezgulik fenomenlarini ifodalashdagi roli, ularning ramziy va estetik ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: mifologiya, demonologiya, angelologiya, badiiy obraz, yovuzlik fenomeni, ezgulik, Sharq va G‘arb adabiyoti, folklor, diniy tasavvurlar.

Аннотация. В статье рассматривается процесс перехода мифологических представлений в литературу и анализируются их исторические и культурные истоки в контексте восточных и западных традиций. Особое внимание уделяется формированию понятий демонологии и англологии, а также их взаимосвязи с религиозным, философским и художественным мышлением. На материале английской и узбекской литературы проводится сравнительный анализ генезиса, семантики и художественных функций демонологических и англологических образов. В работе раскрывается роль мифологических образов в художественном осмыслении феноменов добра и зла и обосновывается их символическое и эстетическое значение.

Ключевые слова: мифология, демонология, англология, художественный образ, феномен зла, добро и зло, восточная и западная литература, фольклор, религиозные представления.

Abstract. This article examines the process of transferring mythological conceptions into literature and explores their historical and cultural roots within Eastern and Western traditions. The study focuses on the formation of demonological and angelological concepts and their close relationship with religious, philosophical, and artistic worldviews. Through a comparative analysis of English and Uzbek literature, the genesis, semantic dimensions, and artistic functions of demonological and angelological images are investigated. The research highlights the role of mythological imagery in representing the phenomena of evil and good in literary texts and substantiates their symbolic and aesthetic significance from a scholarly perspective.

Keywords: mythology, demonology, angelology, literary image, phenomenon of evil, good and evil, Eastern and Western literature, folklore, religious concepts.

Kirish. Ma'lumki, dunyoning barcha xalqlari adabiyoti, mifologiyasida demonologiya va angelologiya tushunchasi mavjud. Bu tushunchalarning o'ziga xos mohiyati, tarixiy va madaniy ildizlari Sharq va G'arb xalqlari an'alaridagi mifologik tasavvurlarga borib bog'lanadi. Bular haqida avvalo, bunday tasavvurlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risida fikr yuritishga to'g'ri keladi. Mifologik dunyoqarashning paydo bo'lishi olis davrlarga borib taqaladi. Tabiatda sodir bo'ladigan suv toshqini, er qimirlashi, tog'larning ko'chishi, vulqon otilishi, momaqaldiraq, chaqmoq chaqishi kabi hodisalar qadimgi odamlar tasavvurida olamning yaralishi, insonlar, hayvonot va nabotot, parrandayu darrandalarning qay tartibda paydo bo'lganligi, tabiat hodisalari haqidagi ilk ibtidoiy tushunchalarning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan. Urug' jamoasi o'zlashtirgan hudud

chegaralaridan tashqarida noma'lum, begona olam boshlanardi. O'z olami (koinot) - hayot, uyg'unlik va tartib markazi edi. Begona olam esa - tartibsizlik, o'lim va xaos markaziga aylanardi. Asta-sekin, ming yillar davomida o'zlashtirish tajribasini to'plab, inson yangi sifatga o'tishga imkon beruvchi ma'lum bir darajaga erishdi - inson ongi dunyoning yaxlitligini va undagi o'z o'rnini anglay boshladi. Insonning yashashi uchun moslashtirilgan dunyoning yaxlitligini anglash jarayoni dunyoning yaratilishi haqidagi afsona shaklida o'z ifodasini topdi. Aynan olamning yaratilish jarayonida inson ongining paydo bo'lish lahzasi ramziy tarzda aks ettirilgan. Inson o'zining bu dunyoda mavjudligini bilishini anglab etdi. Yer yuzida yashovchi barcha xalqlarning o'z og'zaki ijodi, tabiat va jamiyat hayoti bilan bog'liq afsona va rivoyatlari bor. Xalq ijodchilari ichki va tashqi dushmanlarga, tabiatning yovuz kuchlariga qarshi kurashda turli-tuman yo'llardan, usullardan foydalanganlar va xilma-xil obrazlar yaratganlar.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda xalq og'zaki ijodida tilga olinadigan jin, shayton, iblis, pari, dev, jodugar kabi obrazlar ham aslida ana shu tasavvurlar hosilasi hisoblanadi. Shunisi e'tiborliki, bu obrazlar turli xalqlarda hayotiy, aslida mavjud mavjudotlar sifatida qabul qilingan. Keyinchalik dinlar paydo bo'lishi bilan mifologik qarashlar yanada teranlashgan va diniy e'tiqoddan mustahkam o'rin egallagan.

Platon qarashlarida demon tushunchasi muhim o'rin egallagan. U bu g'ayrioddiy mavjudotlarni ilohiy va real hayotda yashayotgan kishilar o'rtasidagi vositachilar deb tushunadi. Albatta, bu kabi qarashlar demonologiyani yovuzlikning majburiy timsoli de emas, balki inson taqdirini tartibga soluvchi kuchlar tizimining bir bo'lagi sifatida tasavvur etishga imkon beradi. Yahudiy-xristian an'analari demonlar o'z qilmishiga yarasha jazolangan, insoniyatga yomonlik qiluvchilar sifatida talqin qilinadi. O'rta asr Evropa adabiyoti, ayniqsa diniy dramalar, muqaddas matnlar va demonologik traktatlar bu tasavvurni yanada kuchaytiradi. Bu davrda demon – har doim vasvasa, buzg'unchilik, ma'naviy sinov va ruhiy qulashning asosiy ramzi bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tarixiy-madaniy hamda germenevtik tahlil metodlaridan foydalanildi. Demonologik va angelologik obrazlarning genezisi hamda badiiy funksiyalarini aniqlashda Beowulf, Ilohiy komediya, Faust, Yo'qotilgan jannat hamda o'zbek xalq dostonlari matnlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, mifologik qarashlarning diniy va falsafiy manbalar bilan uzviy bog'liqligini ochib berishda intertekstual va semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Sharq va G'arb adabiy an'analari kontekstida mifologik obrazlarning evolyutsiyasi tizimli yondashuv asosida o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Mifologik qarashlarning adabiyotga ko'chishida O'rta asrlar muhim o'rin tutadi. Bu davrda demonologiya alohida fan yoki ta'limot sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, demonologiya doirasida qaraluvchi jonzotlarning xalq ma'naviy dunyoqarashiga, ijtimoiy hayot tarziga xavf tug'dirishi e'tirof etilgandi. Shu bois ularga qarshi kurashish, ularning inson ongiga salbiy ta'sirini bartaraf etish o'sha davr

ilohiyotchilari diniy ta'limotning zimmasidagi asosiy vazifaga aylangandi. Bu borada xalqni ogohlikka chorlovchi, g'ayritabiiy kuchlarga qarshi kurash yo'l-yo'riqlariga bag'ishlangan asarlar, ko'rsatmalar ham yaratildi. Ana shunday kitoblardan biri qirol Yakov I ning 1597-yilda nashr etilgan "Demonologiya" kitobi bo'ldi. O'z davrining diniy ta'limoti ko'rsatmalariga rioya qilib yozilgan bu kitob o'z mazmun-mundarijasiga ko'ra xalqni jodugarlar va sehrgarlik domiga tushib qolishdan ogohlantirish, bu xavfni bartaraf etishga bag'ishlangan. Bu kitob o'sha davrda omma orasida keng tarqalgan shayton va uning nayranglariga qarshi kurash barobarida dinning ta'sir kuchini yanada oshirishga, xalqning diniy e'tiqodini yanada mustahkaklashga xizmat qilgan. Albatta, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan bu o'zgarishlar badiiy ijodga ham ta'sir qilmay qolmadi. Adabiyotda Kristofer Marlouning "Doktor Faust", Shekspirning "Makbet", Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" kabi asarlarida g'ayritabiiy demonologik kuchlar badiiy obraz sifatida adabiyotga kirib keldi. Adabiyot taraqqiyoti, xususan, Shekspir va boshqa ijodkorlar asarlarida demonologiya inson tabiati, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning inson ruhiyatida aks etishi, u dunyoning mavjudligi, inson ko'nglidagi shaytoniy istaklar, gunoh va vasvasani tadqiq etishning o'ziga xos vositasiga aylandi.

Demonologik mavzular, obrazlarning adabiyotda o'rin egallashi unga nisbatan qarashlarni o'zgartirdi. Bu esa o'z navbatida unga adabiyotshunoslik ob'ekti sifatida munosabatni yuzaga keltirdi. Ana shu o'rinda demonologiya adabiyot-ilohiyot – huquqshunoslik triadasini tutashtirib turuvchi muhim halqaga aylandi. Ilohiyot va huquqshunoslikning demonologik kuchlarning mavjudligi, turli jodugarlar, sehrgarlar ularning ko'rinishlari ekanligini isbotlashga harakat qilishi, jinlarga qarshi kurashishida adabiyot o'ziga xos maydonga aylandi. Evropa adabiyotida bu masalaga ko'p e'tibor qaratilib, demonologiya va angelologiya ko'proq dramatik asarlar mavzusiga aylanib, o'ziga xos falsafiy mazmun ifodalay boshladi. Dante Aligeri "Ilohiy komediya"da farishtalar pog'onaviyligini mukammal tasvirlab, iblislar olamiga jahannamning turli doiralari tasviri bilan badiiylik bag'ishladi. Metistofel Shimoliy Yevropa Uyg'onish davri mifologiyasida yovuzlik ruhi obrazi. 1587 yilda u nemis xalq kitobining adabiy qahramoni sifatida tanilgan "Doktor Faust haqida qissa..." I. V. Gyotening "Faust" falsafiy dramasi tufayli keng shuhrat qozondi. Gyotening "Faust" asarida Mefistofelning obrazida demonologiya mutlaqo yangi bosqichga ko'tariladi – u endi nafaqat yovuzlik, balki inson tafakkurining shubha, inkor, izlanish va tanqid ruhini o'zida mujassamlashtirgan intellektual kuchga aylanadi. Miltonning "Yo'qotilgan jannat" asarida esa Iblis obrazining murakkabligi shundaki, u mohiyatan yovuzlikni targ'ib qiluvchi bo'lsa-da, uning xarakteridagi mavjud voqelikdan norozilik, tuzumga nisbatan isyonkorlik, yovuzlikka asoslangan mustaqillik uchun kurashish, itoatsizlik kabi jihatlar uni badiiy-estetik nuqtai nazardan yanada jonli, dramatik, hatto e'tiborga loyiq ko'rinishda tasvirlaydi.

Ingliz adabiyoti jahon xalqlari madaniyatida ko'p asrlik tarixi, madaniy, diniy, falsafiy va mifologik an'analarga boyligi bilan o'ziga xos o'rin tutadi. Ingliz adabiyotining

rivojlanish bosqichlarida demonologik va angelologik obrazlar eng muhim qatlamlardan hisoblanadi. Insoniyat tarixi davomida barcha xalqlarda yaxshilik va yomonlik, tinchlik va urush, farishta va shayton haqidagi tasavvurlar bo'lgan va ular jamiyat tafakkurida ma'lum obrazlar sifatida namoyon bo'lgan. Ingliz adabiyotida ham bu holat o'ziga xos tarzda kechgan. Demonologiya va angelologiya an'analari dastlab mifologik tasavvurlarni shakllantirgan, davrlar o'tishi bilan bu tushunchalarga oid tasavvurlar takomillashib, milliy badiiy tafakkur bosqichlari bo'ylab rivojlangan. Ingliz adabiyoti dastlab kelt-sakson miflaridan tortib, xristianlikning kirib kelish davrigacha, o'rta asr axloqiy dramalaridan Shekspir tragediyalarigacha, Miltonning ulkan epik falsafasidan romantiklarning ichki "demonlari" gacha, ingliz romanchiligining oltin asri hisoblangan 1837-1901 yillarni o'z ichiga oluvchi Viktoriya davri adabiyotining gotik romanlaridan modernizmning psixologik demonlarigacha va keyingi davrgacha qamrab olgan.

Ingliz adabiyotini mifologik obrazlarsiz tasavvur etish qiyin. Yovuzlik tushunchasi bilan bog'liq demonologik obrazlarning ilk ko'rinishlari ingliz adabiyotida kelt va sakson mifologiyalaridagi arxaik tasavvurlarga borib taqaladi. Qadimgi Britaniya xalqlari o'sha davrlarda voqelikdagi ko'plab narsalarning, tabiatning jonli ekanligiga ishonishgan. Shu tasavvurlar tufayli o'rmon, ko'l, tog', daryo, jarliklarda yashaydigan ruhlar va g'ayritabiiy kuchlar borligini e'tirof etishgan. "Beovulf" dostoni bu arxaik tasavvurlarni badiiy ifodalagan eng qadimiy yodgorlikdir. "Beovulf" – qadimgi ingliz epik dostoni bo'lib, u Geat qabilasiga mansub qahramon haqida hikoya qiladi. Qahramon Grendel nomli maxluqni va uning onasini engadi. Keksaygach, ajdaho bilan jang qiladi va o'zi halok bo'lsa-da, o'zidan keyin qahramonlik shon-shuhratini qoldiradi. Uning xazinalari o'zi bilan birga dengiz qirg'og'ida dafn etiladi. "Beovulf" dostonidagi Grendel obrazi yovuzlikning timsoli hisoblanadi. Grendel tashqi yovuz mavjudot emas, balki tabiatning o'zgarmas, shafqatsiz, sirli, ibtidoiy kuchining badiiy ifodasidir. Badiiy haqiqat mezonlaridan kelib chiqilsa, Grendel insonlarning tabiatdagi mavhum jonzotlardan qo'rquvlari tufayli paydo bo'lgan, noma'lumlikni ifodalovchi, inson va tabiatdagi g'ayritabiiy kuchlar o'rtasidagi ziddiyat timsolidir. Grendel obrazi - ingliz-sakson "Beovulf" dostonidagi odamxo'r maxluq bo'lib, antropomorf dev va Kainning avlodi hisoblanadi. U botqoqliklarda yashaydigan, Daniyaning Xeorot saroyiga hujum qiladigan, ibtidoiy yovuzlik va zulmatni ifodalovchi mavjudotdir. Beovulf uni qo'lini uzib tashlab engadi, shundan so'ng Grendel halok bo'ladi. Keyinchalik Beovulf Grendelning onasini ham o'ldiradi. Grendel qahramonning uchta asosiy dushmanidan biri sanaladi.

O'zbek folkloridagi mifologik obrazlar, asosan, ikki asosda paydo bulgan:

1. Zardushtiylik bilan bogliq mifologik tasavvurlar asosida paydo bo'lgan mifologik obrazlar. Bunga ezgulik xudosi Axuramazda, yovuz dev Axriman, Mitra, Xurmuz, Mirrix, Ardivisura (Anaxita), Noxit, aranglar, Zaxxok, Bivarasp, Kirshasp (Gershasp), Arjasp, Yima (Jamshid), Qayumars, ilk foniy odam - Gaya Martan yoki Gavomard, Asha, Aji daxaka, Bushasta, dayva, pariyika, jinlar obrazlari misol bo'ladi.

2. Arab mifologiyasi ta'sirida kirib kelgan mifologik obrazlar: Anqo, jin, gul, Odami Od, Morut, Lot, Manot va boshqalar.

3. Islom diniga e'tiqodni ifodalovchi mifologik obrazlar: Xizr, Azroil, jin, Munkar-Nakir, Xorut va Morut kabi.

Sexrli-fantastik ertaklarda dev, pari, jodugar, alvasti, jin singari mifologik obrazlar ko'p uchraydi. Ular turli qiyofaga kira oladi. Bunday xususiyat Xizr, Simurg', Yalmog'iz kampir va ajdar (uch boshli, etti boshli) kabi mifologik obrazlarga ham xos. Xizr, Simurg' kabi mifologik obrazlar homiy vazifasida ijobiy xususiyatda talqin qilinadi. Yalmog'iz kampir, pari, dev, jin kabilar goh homiy sifatida ijobiy, goh raqib sifatida salbiy obraz qilib ko'rsatilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodi, masalan, "Alpomish" dostonida yovuz jinlar, devlar, ajdaho kabi mifologik mavjudotlar keng o'rin olgan. Bu obrazlar asrlar davomida o'zbek adabiyotiga ta'sir ko'rsatib, yozma adabiyotning boyligini oshirgan. "Go'ro'g'li shunday mubolag'alashtiriladiki, uning jahli chiqsa, «chillali qishday murtiga chappa qaytadi», «har tebranganda esa, quymichi erga to'rt ellik botadi». Uning zarbiga tog'lar bardosh bera olmaydi, daryolar oqmay to'xtab qoladi. U o'nlar, yuzlar va hatto minglar devlar, yirtqich hayvonlar bilan ham kurasha oladi. Masalan, «Malika ayyor» dostonida u: Ko'klam tog'ni so'ta bilan uradi Ko'klam tog'i qoq yorilib boradi'. Go'ro'g'lining ming-minglab sher va ajdarlarini so'ta bilan urib, er bilan yakson etishi («Malika ayyor»), osmonda va erda yurib, insonga kulfatlar keltiruvchi behisob devlar bilan kurashib, ularni zabun etishi («Mashriqo»), yurtni vayron, xalkni qul qilish uchun bostirib kirgan son-sanoksiz yovlar va g'ayritabiiy kuchlarni («Yunus pari», «Intizor» va boshqa dostonlarda) engishi ham xamma narsalardan qudratli inson ekanligini mubolag'alashtirilishidir.

Ingliz va o'zbek mifologiyasi va adabiyotida mifologik obrazlar ezgulik va yomonlik nuqtai nazaridan demonologik va angelologik obrazlarga ajratiladi. Demonologik obrazlar tizimida shayton asosiy deb hisoblansa, angelologik obrazlar tizimida farishtalar bosh obrazlar sanaladi. Inglizlarda farishtalar va arxangellar diniy va afsonaviy tasavvurlarda muhim shaxslar bo'lib, ko'pincha Xudo va insoniyat o'rtasidagi vositachilar sifatida tasvirlanadi. Badiiy adabiyotda ularning obrazlari xilma-xil bo'lishi mumkin, jumladan bolalar va ayollar ko'rinishida ham. Farishtalar va arxangellarning umumiy xususiyatlari bir-biridan farqlanadi.

Masalan, islomda har bir odamning savob va gunoh ishlarini hisobga olib yuruvchi farishtalar, jannat va do'zaxda darvozabonlik qiluvchi, odamlarni qabrda so'roq qiluvchi (Munkar va Nakir), Alloh taxtini osmonda ko'tarib turuvchi va boshqa xizmatlarni bajaruvchi farishtalar mavjud deb karaladi. Bu farishtalardan 4 tasi: Azroil, Jabroil, Mikoil, Isrofil bosh farishta hisoblanadi.

Xulosa. Yevropa adabiyotida keyingi asrlarda demonologiya va angelologiya tushunchasi yanada mukammallashdi. Adabiyotda mifologik obrazlardan foydalanishga intilish sezilarli darajada kuchaydi. Dante Aligeri "Ilohiy komediya"da farishtalar

ierarxiyasini mukammal tasvirlab, demonlar olamini jahannamning turli doiralari orqali badiiy lashtiradi. Goetening “Faust” asarida Mefistofelning obrazida demonologiya mutlaqo yangi bosqichga ko‘tariladi — u endi nafaqat yovuzlik, balki inson tafakkurining shubha, inkor, izlanish va tanqid ruhini o‘zida mujassamlashtirgan intellektual kuchga aylanadi. Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” asarida esa Iblis obrazining murakkabligi shundaki, u yovuzlikni targ‘ib qiluvchi bo‘lsa-da, uning xarakteridagi norozilik, Xudo amrini bajarmaslik, o‘zini boshqa mavjudotlardan ustun qo‘yish, kibr kabi jihatlar uni murakkab obraz sifatida badiiy-estetik nuqtaii nazardan yanada jonli, dramatik, hatto qahramonga xos ko‘rinishda tasvirlashga asos bo‘lgan.

Islom madaniyatida esa demonologiya yanada mustahkam tizimga ega bo‘lib, ularni o‘rganuvchi maxsus ta‘limot mavjud bo‘lmasa-da, Qur’onda jinlar va shaytonlar haqidagi ko‘plab o‘rinlar mavjud. Jinlar insonlar kabi irodali mavjudot sifatida yaratilgan bo‘lib, ular orasida ham mo‘min va kofir toifalar borligi qayd etiladi. Shayton esa vasvasaning, ma‘naviy inqirozning, insonni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘ituvchi kuchlarning markaziy timsoli bo‘lib, adabiyotda turli ko‘rinishlarda aks etadi. Tasavvufiy manbalarda demonologik obrazlar ko‘proq majoziy mazmun kasb etib, ular insonning o‘z nafsi, jaholat, nafsiy zulmat va ruhiy to‘siqlarining ramziga aylantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акромов Ф.Манистик мифология. -«XX аср узбек фольклоршунослиги». Антология [Матн] / Тузувчилар: О. Тулабоев ва бошқ. - Т.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2017.
2. Пивоев В. М. Мифологическое сознание как способ освоения мира.-Петрозаводск: Карелия, 1991.
3. Назарова Г.П. Инглиз ва ўзбек адабиётида мифологик образлар тизими, генезиси, бадий вазифалари. Номз.дисс. автореф.Бухоро, 2022.
4. Нажмиддин Кубро. Кўнглим кўзи билан кўрганларим. /Жузжоний Абдулҳаким Шаърий. Тасаввуф ва инсон. — Т.:»Адолат», 2001.
5. Мифы народов мира.Энциклопедия. «Советская Энциклопедия» 1980.
6. Муродов М. Ўзбек халқ достонларида образ яратиш усуллари ҳақида баъзи мулоҳазалар -«XX аср ўзбек фольклоршунослиги». Антология [Матн] / Тузувчилар: О. Тулабоев ва бошқ. - Т.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2017.
7. Акромов Ф.Манистик мифология. -«XX аср узбек фольклоршунослиги». Антология [Матн] / Тузувчилар: О. Тулабоев ва бошқ. - Т.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Давлат илмий нашриёти, 2017.
8. Назарова Г.П. Инглиз ва ўзбек адабиётида мифологик образлар тизими, генезиси, бадий вазифалари. Номз.дисс. автореф.Бухоро, 2022.